



O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik markazi

Matn bilan ishlashda o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish

Nazirova Xabiba

Farg'ona viloyati Farg'ona shahar 5-sonli umumiy o'rta
ta'lim maktabining oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

O'QISH SAVODXONLIGI



O'qish savodxonligi bugungi ta'lim jarayonining markaziy masalalaridan biridir. Matn bilan ishlash o'quvchining fikrlash, tahlil qilish, tushunish va o'z fikrini aniq ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi.



O'qish savodxonligi nima?

O'qish savodxonligi – bu o'quvchining matnni anglash, ma'lumotni tahlil qilish, baholash va uni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatidir.


Savodxonlik nafaqat matnni o'qish, balki uni tushunish va undan maqsadli foydalanishni ham o'z ichiga oladi.



O'qish savodxonligining ahamiyati

O'qish savodxonligi:

- o'quvchining tafakkurini kengaytiradi.
- nutq va yozma ifoda ko'nikmalarini rivojlantiradi.
- har qanday fan bo'yicha ma'lumotni o'zlashtirishni osonlashtiradi.
- mustaqil o'rganish va izlanish madaniyatini shakllantiradi.



Metodik asoslar

O'qish savodxonligini shakllantirishda quyidagi to'rtta metodika asosiy rol o'ynaydi:

BILISH

Maqsad: Ma'lumotni

aniqlash

Amalga oshirish shakli:

Matndan asosiy g'oyani

topish

TUSHUNISH

Maqsad: Mazmunni

anglash

Amalga oshirish shakli:

So'z va jummalarni tahlil

qilish

QO'LLASH

Maqsad: Bilimni qo'llash

Amalga oshirish shakli:

O'rganilgan fikrni misol

bilan isbotlash

TAHLIL QILISH

Maqsad: Fikrni baholash

Amalga oshirish shakli:

Muallif pozitsiyasini tahlil

etish

Bilish bosqichi



Bu bosqichda o‘quvchi matnni dastlabki o‘qish orqali asosiy ma’lumotni aniqlaydi.

O‘qituvchi o‘quvchiga matnning umumiy mazmunini tushunishga yordam beradi.

Amaliy misol:

- **O‘quvchiga beriladigan savol:** “Matn qaysi mavzuda yozilgan?”
- **O‘qituvchi yondashuvi:** O‘quvchilarni kalit so‘zlar orqali mavzuni topishga yo‘naltiradi.
- **Baholash:** O‘quvchi matnning asosiy g‘oyasini to‘g‘ri aniqlasa, 1-bosqich bajarilgan hisoblanadi.

Bilish bosqichi uchun topshiriq

Topshiriq: Quyidagi qisqa matndan asosiy fikrni ajrating.

“Bahor keldi. Dala yana yashnadi. Bolalar tabiat bag‘rida sayr qildi.”

Savol: Ushbu matndan qanday xulosa chiqarish mumkin?

Natija: O‘quvchi kalit fikrni tanlay oladi va mazmunni qisqa ifodalaydi.



Tushunish bosqichi



Bu bosqichda o'quvchi matnni chuqurroq tahlil qiladi, sabab-oqibat aloqalarini tushunadi. O'qituvchi savollar orqali o'quvchining tahliliy fikrlashini faollashtiradi.

Misol:


- **Savol:** “Matndagi qahramon nima sababdan shunday yo‘l tutdi?”
- **Yondashuv:** O'quvchilar fikrini asos bilan izohlashga o'rgatiladi.
- **Baholash:** O'quvchi matn mazmunini o'z so'zlari bilan ifodalay oladi.

Tushunish bosqichi uchun topshiriq!

Matn: “Yosh kitobxon hikoya oxirida muallif fikrini anglab yetdi.”

Savol: Qahramonning xulqidagi o‘zgarish nimani bildiradi?

Baholash mezonlari: Javob sabab va oqibat asosida bo‘lsa, to‘liq baholanadi.



Qo'llash bosqichi

Bu bosqichda o'quvchi o'z bilimini yangi vaziyatda qo'llaydi. Matnni o'rganib, hayotiy misollar orqali mazmunni mustahkamlaydi.

Misol:

- **Savol:** “Bu hikoyadagi g'oyani hayotingizda qayerda uchratgansiz?”
- **Yondashuv:** O'quvchi shaxsiy tajribasi bilan bog'laydi.
- **Baholash:** Fikr mustaqilligi va hayotiy bog'lanish inobatga olinadi.



Qo'llash bosqichi uchun topshiriq

Topshiriq: Matndan olingan axloqiy g'oyani kundalik hayotga tatbiq eting.

“Har kim o‘z mehnatining natijasini ko‘rsa, eng katta mukofot shudir.”

Matndan g'oya: Mehr

Hayotdagi misol: Ona mehri

Fikr izohi: Yaxshilikni qadrlash odati shakllanadi



Tahlil qilish bosqichi



Bu bosqichda o‘quvchi matnni chuqur tahlil qiladi, muallif pozitsiyasini baholaydi. O‘qituvchi savollar orqali o‘quvchini mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltiradi.

Misol:


- **Savol:** “Muallif bu fikr orqali nimani ko‘zlagan?”
- **Yondashuv:** Dalillarga asoslangan tahlil.
- **Baholash:** Fikr mantiqiy asosda izohlangan bo‘lishi kerak.

Topshiriq: Quyidagi matndan muallif fikrini aniqlang va baholang.

“Har kim o‘z mehnatining natijasini ko‘rsa, eng katta mukofot shudir.”

Savol: Muallif fikri nimada?

Javob namunasi: Mehnatning qadri — eng yuksak mukofotdir.



METODIK YONDASHUVLAR INTEGRATSIYASI

Bilish

Bu bosqichda asosiy tushunchahni o'ganadilar, va tajriba orttiradilar

Tushunish

Bu bosqichda o'quvchi chuqur mazmunini tushunadi

Qo'llash

Bu bosqichda o'quvchi tajribasidan kelib chiqib amalda sinaydi

Tahlil qilish

Bu bosqichda o'quvchi sinalgan barcha usullardan kelib chiqib bir xulosaga keladi

O'QITUVCHI ROLI

O'qituvchi — yo'naltiruvchi, kuzatuvchi va baholovchi.

U o'quvchini mustaqil fikrga yetaklaydi, savol berishga, izlanishga undaydi.

O'qituvchi matn tanlashda yosh va qiziqish omillarini inobatga oladi.



Baholash mezonlari

01

Bosqich: Bilish
Baholash mezonlari: Asosiy fikrni
to'g'ri aniqlasa, to'liq ball

02

Bosqich: Tushunish
Bahokash mezonlari: Matn
mazmunini
to'liq aniqlab, tushunsa, to'liq ball

03


Bosqich: Qo'llash
Baholash mezonlari: G'oyani
hayotiy misollar orqali bo'lab,
amalda sinaydi

04

Bosqich: Tahlil qilish
Baholash mezonlari: Fikrni to'lliq
tushunib, mustaqil xulosa
chiqarsa to'liq ball

Yechimlar va tavsiyalar

- Darslarda turli janrdagi matnlardan foydalanish
- Savol-topshiriqlarni bosqichma-bosqich berish
- O'quvchilarning mustaqil fikrini rag'batlantirish
- Baholashda faqat to'g'ri javob emas, fikr yo'nalishi ham hisobga olinishi lozim



Amaliy dars namunasi

Matn: Inson uchun havo, quyosh, suv, non, ota-ona qanchalik aziz va muqaddas bo'lsa, Vatan ham shunchalik mo'tabardir. Vatan ona tuproqdan boshlanadi. Vatanga muhabbat shu tuproqqa – ona qishloq dalalariga, ko'klam chog'ida lolazorga aylanadigan qir-adirlarga, olislarda yuksalgan moviy tog'larga, hatto yantog'-u saksovuldan boshqa giyoh unmaydigan dasht-u sahrolarga muhabbatdan boshlanadi. Vatan muhabbati ota-onaga, aka-ukaga, opa-singilga, do'st-birodarga mehr bilan qo'shilib ketadi. Nafaqat inson, hatto qushlar ham o'z yurtini sog'inadi. Dov-daraxtlar o'z yurtini qo'msaydi.

O'quvchi uchun savollar:

Bilish: Matn asosida bo'sh o'rinlarni to'ldiring.

1. Har bir insonning Vatanga muhabbati ... boshlanadi.
2. Nafaqat inson, hatto qushlar ham o'z ... sog'inadi.

Baholash: Savollarning javobi matndan aniq olinganiga e'tiborga olinadi.




Amaliy dars namunasi

Matn: Aytishlaricha, Amerikada ming yilcha umr ko'radigan daraxt bo'lar ekan. Fransuzlar uni havas bilan o'z yurtlariga olib kelib ekishibdi. Nihollar o'sib, ko'kka bo'y cho'zibdi. Yillar o'tib, bog' o'rmonga aylanibdi. Ammo oradan o'ttiz-qirq yil o'tgach, kutilmagan voqea yuz beribdi: suv ichib yashnab turgan daraxtlar o'z-o'zidan qurib qolibdi. Olimlar falokat sabablarini izlay boshlashibdi. Uni aniqlashgach, hayratdan yoqa ushlabdi. Bu daraxtlar qurigan pallada Amerika qit'asida qattiq qurg'oqchilik bo'lgan ekan. U yerdagi shu navli daraxtlar qurib qolgan ekan.

O'quvchi uchun savollar:

Muallifning Amerikada o'suvchi daraxtlar haqidagi hikoyani matnga kiritishdan ko'zlagan asosiy maqsadini toping.

Baholash: Fikrning aniqligi, mustaqilligi va izchilligi e'tiborga olinadi.



Xulosa

O‘qish savodxonligini rivojlantirish – bu faqat matnni o‘qish yoki tushunish jarayoni emas, balki o‘quvchining tafakkurini chuqurlashtiradigan, dunyoqarashini kengaytiradigan va shaxsiy hamda intellektual o‘rishini ta‘minlaydigan uzluksiz ta‘limiy jarayondir. Ushbu jarayon orqali o‘quvchi mustaqil fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish va o‘qilgan matndan o‘z hayoti uchun foydali g‘oyalar olishni o‘rganadi. Agar o‘qituvchi bu to‘rtta metodikani yagona tizim sifatida uyg‘un holda qo‘llasa, natijada o‘quvchilarda fikrlash madaniyati, tahliliy salohiyat, ijodiy yondashuv va o‘z fikrini asosli, lo‘nda hamda erkin ifodalash qobiliyati shakllanadi.

E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!